BIZNES FAOLIYAT DAVOMIYLIGINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tilaboyev Shuhrat Jurabekovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Qabul qilindi: 01.02.2026 **Tasdiqlandi**: 02.02.2026
Ko‘rib chiqildi: 02.02.2026

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi biznes faoliyati subektlari ulushining ko‘payib borishi bilan belgilanadi, biznes faoliyati ulushining kun sayin ko‘payib borishi esa, o‘z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda biznes faoliyatining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,3 foizni tashkil etmoqda.

Avvalo biznes faoliyati haqida so‘z yuritishdan oldin ushbu iqtisodiy tushunchalarga ta’rif berib aniqlik kiritib olishimiz kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni turli mulkchilik shakllariga keng imkoniyatlar yaratib berilgan bo‘lib, buni qonuniy asoslari ham yaxshi shakllantirilgan. Fuqarolarning o‘z mulkiga o‘zi egalik qilishi va tadbirkorlikni rivojlantirishi bilan bog‘liq huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Zotan davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 36-moddasida “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi” (O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – 40 b.) deb yozib qo‘yilgan. Konstitusiyada kafolatlangan mana shu huquq mamlakatimiz aholisining iqtisodiy faol qismini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga, o‘z xohishi bilan tavakkalchilik qilib, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni ayirboshlash orqali insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga, ularning turmush tarzini yanada boyitishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz fuqarolarining tadbirkorlik bilan bog‘liq huquqlari va tadbirkorlik tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 iyunda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida bayon qilingan bo‘lib, uning 3-moddasida tadbirkorlik faoliyati “Tadbirkorlik faoliyati subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat” deya izohlangan.

Bizning fikrimizcha ***biznes faoliyati*** bu - ma’lum tanlangan yo‘nalish bo‘yicha bozor talabini inobatga olgan holda o‘z tavakkalchiligi ostida ishlarni tashkil etishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 24-moddasida esa “fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqlidir” (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son ilova.) deb qayd etilgan.

Biznes faoliyatini tashkil etishda ularning sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga e’tibor beriladi. Sifat ko‘rsatkichlarga korxonaning boshqaruv tizimining soddaligi, bozordagi ulushiga ega bo‘lishi kabi ko‘rsatkichlar kirsa, ko‘p tarqalgan miqdor ko‘rsatkichlariga, korxonada ishlovchilar soni, asosiy mablag‘lar qiymati, mahsulot sotish hajmi kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Aynan shu ishchilar soniga qarab aniqlashda ham turli xilma-xillik mavjud. Masalan, Yaponiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida 300 kishigacha, AQSH va Italiyada 500 kishigacha, Tailand va Singapurda 50 kishigacha ishlovchisi bo‘lgan korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

Biznes faoliyatiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasida biznes faoliyatining tasniflanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tansinflash tizimiga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 275-sonli Qarori bilan tartibga solinadi va faqatgina bitta “Xodimlar soni” mezonini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda “o‘rta biznes” segmenti mavjud emas.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida biznes faoliyatini

ifodalanishi

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-sonli Qarori asosida tayyorlandi.*

Xalqaro amaliyot o‘rganilganda kichik biznes va xususiy tadbikorlikni aniqlash mezonlari o‘rganilganda ular qisman mos kelmasligi ma’lum bo‘ldi. Umuman olganda, dunyo mamlakatlarining biznes faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tajribasi o‘rganilganda, turli mamlakatlarda bu sohani takomillashtirish borasida turlicha mexanizmlar qo‘llanilganligi va qo‘llanilayotganligini ko‘rish mumkin. Masalan, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlarida “bir darcha” tamoyilidan keng foydalaniladi. Fransiyada esa Biznes- rasmiyatchiliklar bo‘yicha markazlar tarmog‘i bo‘lib, mazkur Markazlar ruxsatnomalar berish borasida vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan talablarga ko‘ra tadbirkorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga ma’lumotlar taqdim etib boradi. Hozirda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti davlatlarida ruxsat berish bilan bog‘liq tartib-taomillarni yanada qisqartirish bo‘yicha maxsus ko‘rsatma qabul qilingan.

Shu bilan bir qatorda, sohada axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, “on-line” rejimi orqali hujjatlarni elektron tarzda taqdim etishni joriy qilish va hujjatlarni faqat sud qaroriga asosan chaqirib olish tizimini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Xitoy, Bolgariya, Kolumbiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Moldova, Xorvatiya kabi mamlakatlar bu borada o‘ziga xos yo‘l tutganliklarini ham aytib o‘tish lozim (O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar. Maqolalar to‘plami. –Toshkent, YUMOM, 2016. – 140 b.). Bu mamlakatlarda juda qisqa vaqt mobaynida biznes faoliyatiga keng yo‘l ochilganligi, xususan ruxsat berish tartib-tamoyillari soddalashtirilganligi va qisqartilganligi natijasida biznesni tashkil qilishga ketadigan xarajatlar hamda vaqt tejalishi hisobiga investitsiyalarning kirib kelishi osonlashgan. Ayniqsa, hujjatlarni “bir darcha” orqali taqdim etish prinsipi asosida ishni tashkil qilish sezilarli ravishda ijobiy natija bergan.

Birgina misol bugungi kunda Niderlandiyada tadbirkorlik sohasidagi g‘ov va to‘siqlarni bartaraf qilish, ruxsat berish tartibotining qisqartirilishi va soddalashtirilishi tufayli har yili 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida davlat mablag‘lari iqtisod qilinayotganligi (www.worldbank.uz m’lumotlari asosida tayyorlandi) yaxshi natijadir.

Hindistonda keyingi yillarda bu tartib-tamoyillarning qisqartirilishi natijasida yalpi ichki mahsulot keskin ko‘paygan – bu boradagi ko‘rsatkich 3,5 foiz dan ko‘tarila borib 6-7 foizga yetgan (www.msme.gov.in internet sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi). Bu borada Janubiy Koreya tajribasi, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu mamlakatda keyingi o‘n yil mobaynida 11000 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat inventarizatsiya qilingan va ruxsat berish tartib-taomillari keskin qisqartirilgan, natijada yalpi ichki mahsulotda xususiy

sektorning ulushi keskin oshgan.

Rivojlangan davlatlar tajribalari o‘rganilganda, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish uchun asos bo‘lgan moliyaviy ta’minot, biznes uchun yagona omil emas, balki har qanday biznes uchun uni boshlash va davom ettirish uchun eng hayotiy va asosiy element hisoblanishi ma’lum bo‘ldi.

Albatta, barcha biznes loyihalarimizni amalga oshirishimiz uchun bizga sarmoya ya’ni pul mablag‘lari kerak bo‘ladi. Shunisi, diqqatga sazovorki pul mablag‘lari manbalari qayerdan, qanday qilib shakllanishi muhim emas, uning huquqiy asosga ega ekanligi, arzon va tez topilishidadir.

Xorijlik va o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan biznes faoliyatini kreditlash masalasi ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Taniqli iqtisodchi olim Adam Smitning fikricha “Pul bu maqolda aytiladi, agar pul senda ozroq bo‘lsa ham, ko‘proq olish osonroq bo‘ladi. Katta qiyinchilik bu o‘sha ozroqni topishdir”(www.google.com Adam Smith, 1937: "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations", Edwin Cannan (Ed.), The Modern Library/ Random House Inc., New York)). Bu fikr, bir narsani o‘rgatadi, ya’ni pul topish va uni kerakli joyga sarflash orqali o‘z daromadini topish mushkul ish ekanligini bildiradi. Kichik biznes subektlari o‘z tavakkalchiligi ostida biznes rejasini amalga oshirish uchun bankdan kredit oladi va o‘z ishini yo‘lga qo‘yadi. Bu esa iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.